

**MAHALLIY TELEDASTURLARDA LEKSIK O‘ZGARISHLARNING
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ULARNING TIL MADANIYATIGA
TA’SIRI**

Go‘zal Jalolova Kamoliddin qizi

O‘zJOKU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Maqolada mahalliy teledasturlarda leksikaning o‘zgarishi muammolari lingvistik, madaniy va ijtimoiy omillar asosida tahlil qilingan. Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va kommunikatsion yangiliklar ta’sirida televideniye tili tarkibida yuz berayotgan leksik o‘zgarishlarning xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bu jarayonning til madaniyatiga ta’siri va uni tartibga solishning zaruriy choralari haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *globalizatsiya, kommunikatsiya, leksika, ommaviy axborot vositalari, teledastur, til madaniyati, o‘zgarish.*

Kirish

Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, televideniye keng auditoriyani qamrab olishi, turli yosh, kasb va ijtimoiy qatlam vakillariga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga egaligi bilan til taraqqiyoti va til madaniyatining shakllanishida muhim ijtimoiy-lingvistik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Televideniye orqali tarqalayotgan nutq namunalari sifatida, leksik boyligi va me‘yoriyligi bevosita tomoshabinlarning nutq madaniyatiga ta’sir etadi.

Mahalliy teledasturlar o‘z mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra axborot-tahliliy, madaniy-ma‘rifiy, ko‘ngilochar va publitsistik turlarga bo‘linadi. Ushbu dasturlarda qo‘llanilayotgan til birliklari esa jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Natijada, teledasturlar tilida yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlarning ma‘no jihatdan kengayishi yoki torayishi, xorijiy tillardan o‘zlashmalar, shuningdek, so‘zlashuv uslubiga xos birliklarning faollashuvi kabi holatlar kuzatilmoqda. (Boymirzayeva, 2010, 28-b)

Leksik o‘zgarishlar tilning tabiiy rivojlanish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lsa-da, ularning ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqalishi til madaniyati nuqtayi nazaridan muayyan muammolarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, adabiy til me‘yorlariga rioya qilinmasligi, ortiqcha o‘zlashma va jargon so‘zlarning me‘yoridan tashqari qo‘llanilishi,

milliy leksik boylukning ikkinchi darajaga tushib qolishi kabi holatlar til madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy termin va atamalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘llanilishi tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, uning zamon bilan hamnafas rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu ma‘noda, mahalliy teledasturlarda sodir bo‘layotgan leksik o‘zgarishlarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning asosiy tendensiyalarini aniqlash hamda til madaniyatiga ko‘rsatayotgan ta‘sirini tahlil qilish bugungi tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada mahalliy televideniye dasturlarida qo‘llanilayotgan leksik birliklar, ularning zamonaviy xususiyatlari va nutq madaniyatiga ta‘siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritilib, mavjud muammolar bo‘yicha xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida zamonaviy tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tavsifiy metod orqali mahalliy teledasturlarda uchraydigan leksik birliklar yig‘ildi, tizimlashtirildi va ularning umumiy xususiyatlari tavsiflab berildi. Ushbu metod tadqiqot obyektida mavjud bo‘lgan leksik o‘zgarishlarni aniqlash va ularni izchil bayon etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida televideniye tilida qo‘llanilayotgan zamonaviy leksik birliklar adabiy o‘zbek tili me‘yorlari bilan qiyoslab o‘rganildi. Bu jarayonda yangi so‘zlar, o‘zlashma birliklar, so‘zlashuv va jargon unsurlarining me‘yoriy hamda nome‘yoriy qo‘llanish holatlari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil natijasida leksik o‘zgarishlarning til madaniyatiga ko‘rsatayotgan ta‘siri aniqlashga erishildi. (Shomaqsudov, 1983, 110-b.)

Kuzatuv metodi esa tadqiqotning asosiy empirik bazasini shakllantirishda qo‘llanildi. Respublika va hududiy telekanallarda namoyish etilayotgan axborot-tahliliy, ko‘ngilochar hamda publitsistik yo‘nalishdagi dasturlar muntazam ravishda kuzatilib, ularda qo‘llanilgan leksik birliklar til material sifatida tanlab olindi. Kuzatuv natijasida olingan ma‘lumotlar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarishda asos bo‘lib xizmat qildi.

1. O‘zlashma so‘zlar va xorijiy atamalar

Zamonaviy mahalliy teledasturlar tilida ingliz, rus va boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning faollashuvi yaqqol seziladi. Xususan, axborot-tahliliy va ko‘ngilochar dasturlarda menedjer, onlayn, blogger, reyting, format, monitoring, intervyu, ekspert kabi birliklar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu so‘zlar ko‘pincha zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy jarayonlarni ifodalash zarurati bilan bog‘liq holda ishlatiladi.

Masalan, teledastur boshlovchilari “dasturimiz onlayn formatda davom etadi” yoki “reyting ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan loyihalar” kabi iboralarni tez-tez qo‘llaydilar. Ayrim hollarda esa mazkur birliklarning o‘zbek tilidagi muqobillari mavjud bo‘lsa-da, xorijiy

variantlar ustunlik qilmoqda. Bu holat bir tomondan terminologik ehtiyoj bilan izohlansa, ikkinchi tomondan milliy muqobillarning yetarli darajada targ‘ib qilinmasligi va ommalashmaganligi bilan bog‘liq.

2. So‘zlashuv uslubining kuchayishi

Mahalliy televideniya dasturlaridagi ko‘ngilochar, tok-shou va realiti dasturlarida so‘zlashuv uslubiga xos leksik birliklarning faollashuvi kuzatiladi. Bunday dasturlarda rasmiy-adabiy uslubdan ko‘ra erkin, og‘zaki nutqqa yaqin shakllar ustuvor bo‘lib, qisqartmalar va soddalashtirilgan iboralar keng qo‘llaniladi. Masalan, “xo‘p, mayli, gap yo‘q, zo‘r bo‘ldi” kabi birliklar boshlovchi va ishtirokchilar nutqida tez-tez uchraydi.

Bu holat tomoshabinga yaqinlik hissini uyg‘otib, muloqotni jonlantirsa-da, ayrim hollarda adabiy til me‘yorlarining chekinishiga olib keladi. Ayniqsa, axborot dasturlarida yoki rasmiy mavzular muhokamasida so‘zlashuv uslubining ortiqcha qo‘llanilishi nutqning jiddiyligi va me‘yoriyligini pasaytirishi mumkin.

3. Jargon va slang birliklar

Yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan teledasturlarda jargon va slang elementlarining faol ishlatilishi zamonaviy leksik jarayonlarning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. (Karimov, 2018, 90-b.) Masalan, trendda, хайп, лайк bosmoq, bomba, top kabi birliklar yoshlar nutqiga xos bo‘lib, teledasturlar orqali ommalashmoqda. Ushbu birliklar nutqqa ekspressivlik va emotsionallik bag‘ishlaydi.

Biroq jargon va slang birliklarning me‘yoridan ortiqcha va noo‘rin qo‘llanilishi til madaniyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki bunday so‘zlar adabiy til me‘yorlariga mos kelmaydi va ularning keng ommalashuvi yosh avlod nutqida me‘yoriy bo‘lmagan leksikaning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin.

Mahalliy teledasturlarda kuzatilayotgan leksik o‘zgarishlar til madaniyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, ushbu ta‘sir ijobiy va salbiy jihatlarda namoyon bo‘ladi. Televideniya ommaviy axborot vositasi sifatida til birliklarini tezkor tarqatish imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli, undagi leksik jarayonlar jamiyat nutq madaniyatida tez aks etadi.

Ijobiy ta‘sirlar

Avvalo, leksik o‘zgarishlar tilning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta‘minlaydi. Jamiyat hayotida paydo bo‘layotgan yangi ijtimoiy, siyosiy va texnologik tushunchalar teledasturlar orqali tezda tilga kirib keladi. Masalan, onlayn ta‘lim, raqamli iqtisodiyot, startup, innovatsiya kabi birliklar zamonaviy tushunchalarni qisqa va aniq ifodalashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, yangi leksik birliklarning qo‘llanilishi nutqning axborot sig‘imini oshiradi va murakkab tushunchalarni soddashaklda yetkazish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, axborot va

tahliliy dasturlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada tomoshabinlar yangilik va jarayonlarni tezroq anglash imkoniga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, leksik yangilanishlar nutqning ta’sirchanligi va ommabopligini oshiradi. Ko‘ngilochar va publitsistik dasturlarda baholovchi va emotsional birliklarning qo‘llanilishi tomoshabin e’tiborini jalb etib, muloqotning jonli va qiziqarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu holat televideniyeining kommunikativ samaradorligini oshiruvchi omil sifatida baholanadi.

Salbiy ta’sirlar

Biroq leksik o‘zgarishlarning til madaniyatiga salbiy ta’sir etuvchi jihatlari ham mavjud. Eng avvalo, adabiy til me’yorlarining buzilishi holatlari kuzatiladi. (Shomaqsudov, 1983, 109-b.) Ayrim teledasturlarda o‘zlashma so‘zlar, jargon va so‘zlashuv birliklarining noo‘rin va me’yoridan ortiqcha qo‘llanilishi adabiy nutq talablariga zid keladi. Bu esa tomoshabinlar nutqida ham me’yoriy bo‘lmagan birliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, xorijiy tillardan kirib kelgan birliklarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi natijasida milliy leksikaning siqilib chiqishi xavfi yuzaga keladi. Masalan, ayrim hollarda o‘zbek tilidagi muqobil so‘zlar mavjud bo‘lsa-da, ularning o‘rniga xorijiy variantlar qo‘llanilishi milliy til boyligining faol ishlatilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim salbiy jihat yoshlar nutqida me’yoriy bo‘lmagan birliklarning mustahkamlanishidir. Teledasturlar yoshlar uchun muhim til namunasi vazifasini bajarishi sababli, undagi jargon, slang va so‘zlashuv elementlari yoshlar nutqiga tez singib ketadi. Natijada adabiy til me’yorlariga e’tiborning susayishi va nutq madaniyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

Muhokama

Mahalliy teledasturlar tilida kuzatilayotgan leksik o‘zgarishlar til taraqqiyotining tabiiy va uzluksiz jarayoni bo‘lib, uni to‘liq inkor etish yoki cheklash mumkin emas. Chunki har bir til jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarga moslashib boradi. Televideniye esa ushbu jarayonlarning eng tezkor va ta’sirchan vositasi sifatida yangi leksik birliklarning ommalashuvida yetakchi rol o‘ynaydi.

Biroq mazkur jarayonni nazoratsiz qoldirish til madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. (Teshaboyeva, 2012, 98-b.) Ayniqsa, adabiy til me’yorlariga zid bo‘lgan birliklarning keng tarqalishi, xorijiy so‘zlarning asossiz ustunligi va jargon elementlarining me’yoridan ortiqcha qo‘llanilishi nutq madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli teledasturlar tiliga mas’ul bo‘lgan telejurnalistlar, boshlovchilar va muharrirlarning lingvistik savodxonligini oshirish, adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, milliy leksik boylikni saqlash va rivojlantirish maqsadida o‘zbek tilidagi muqobil so‘z va atamalardan faol foydalanish, ularni ommalashtirish lozim. Bu borada

tilshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mahalliy teledasturlarda kuzatilayotgan leksik o‘zgarishlar zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanish jarayonidagi muhim hodisalardan biridir. Ushbu o‘zgarishlar tilning zamon bilan hamnafas bo‘lib borishiga, yangi tushunchalarni tez va aniq ifodalashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularning til madaniyatiga ta’siri ikki tomonlama bo‘lib, ijobiy jihatlar bilan bir qatorda muayyan salbiy holatlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu bois, teledasturlar tilida ijobiy leksik yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlash, adabiy til me’yorlariga zid bo‘lgan birliklarning esa tarqalishini cheklash dolzarb vazifa sanaladi. Televideniye xodimlarining til madaniyatini yuksaltirish, nutq mas’uliyatini oshirish va milliy til boyligiga hurmat bilan yondashish orqali mahalliy teledasturlar tilini yanada mukammallashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. – Toshkent, 2010.
2. Mo‘minov F. A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – Toshkent: Universitet, 1998.
3. Teshaboyeva D. M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi. – Toshkent, 2012,
4. Karimov B. O‘zbek adabiy tili me’yorlari va ularning zamonaviy talqini. – Samarqand: SamDu Nashriyoti, 2018.
5. Shomaqsudov A. va b. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
6. Iskandarova Sh. Ommaviy kommunikatsiya va til. – Toshkent, 2022.